
AMIR TEMUR FAOLIYATIDA BAG'RIKENGLIK TAMOYILINING AKS ETISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8075721>

Abdug'apporova Marziya Najmuddin qizi

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti dinshunoslik

Yo'naliishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya.

Amir Temur jahon tarixida buyuk sarkarda, adolatli podshoh sifatida nom qoldirgan. Uning harbiy, siyosiy va diplomatik faoliyatlari davomida bag'rikenglikning turli shakllarda aks etganini ko'ramiz. Amir Temur qo'l ostidagi barcha xalqlarni teng ko'rgan. U barcha millat, elat, din va mazhab vakillarini teng ko'rgani o'zining muvaffaqiyatlari garovi deb bilgan.

Ushbu maqolada Amir Temur faoliyatidagi bag'rikenglik tamoyillari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z.

Amir Temur, xristianlar, yahudiylar, bag'rikenglik, ajnabiy savdogarlar, Ioan, Klavixo.

Kishilik jamiyati hamma vaqt turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, milliy, madaniy, diniy va shu kabi mezonlar asosida farqlanuvchi turli qatlamlar va guruuhlar majmuyini tashkil etib kelgan. Ular o'rtasidagi munosabatlarning mazmuni jamiyatning haqiqiy holatini ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'lgan. Agar bunday munosabatlar o'zaro tushunish, o'zgacha qarashlar va qadriyatlarga hurmat bilan yondashish, bag'rikenglik asosiga qurilgan bo'lsa, jamiyat taraqqiyoti uchun yo'l ochgan.

O'zbek davlatchiligi uch mingyllik tarixga ega bo'lib, bu uzoq davr mobaynida O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarni qamrab olgan ko'plab shahar davlatlar, podsholiklar, sultonliklar, amirliklar va ulkan imperiyalar tuzulib, boshqaruv tizimi evolyutsion tarzda rivojlanib borgan. 1370-1507-yillarda Eron, Iraq, Suriya va O'rta Osiyoda hududlarida faoliyat yuritgan Temuriylar imperiyasi davrida davlatchilikning diniy, ijtimoiy va siyosiy bag'rikenglik tamoyillari shakllanishining yangi bosqichga ko'tarilgani bilan ahamiyatlidir. Amir Temur siyosiy faoliyatidagi bag'rikenglik tamoyillarini chuqur, ilmiy o'rganish hozirgi

globallashuv davrida xalqimiz ongida bag'rikenglik go'yalarining kecha yoki bugun emas, balki uzoq o'tmishga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bag'rikenglik tamoyilining Amir Temur faoliyatidagi ko'rinishlarini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish orqali islom dini bag'rikenglikni targ'ib qiluvchi din ekanligini va O'zbekiston qadimdan bag'rikeng diyor ekanini ochib berish va bu orqali xalqimiz ongida bu g'oyalarni yanada mustahkamlash asosiy maqsadimizdir.

Amir Temur (1336-1405) jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan, uzoqni ko'rvuchi buyuk davlat arbobi bo'lган. Amir Temur 1336-yil 9-aprel kuni Kesh (Shahrисабз) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or (Yakkabog') qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Amir Tarag'ay - Keshning o'rtahol yer egalaridan bo'lган. Birinchi ustoz mullo Asilbek ismli kishi, undan so'ng shayx Shamsiddin huzurida kalom ilmidan dars olar va Qur'on oyatlarini yodlar edi. Shayx Shamsiddin huzurida uch yil ta'lim oldi va o'n yoshida Qur'oni Karimni to'liq yod olib "Hofiz" darajasiga erishdi. Shundan keyin ustozining tavsiyasi bilan dunyoviy va diniy ilmlarni chuqurroq o'rganishni boshladi. Otasi uni Abdulla Qutb dars beradigan madrasaga beradi.

Amir Temur ilmgaga qanchalik qiziqsa, jang san'atiga ham shunchalik qiziqar edi. O'n olti yoshga to'lganida jang san'atini shunchalar o'zlashtirdiki, tengdoshlaridan birortasi ham kurash, o'q otish musobaqalarida unga tenglasha olmasdi. Amir Temur ikki qo'l bilan qilich tutib jang qilishni Samar taxxon ismli qilichbozdan o'rgangan.¹ Temurning bu qobiliyati jang maydonida qarshisidagi raqibi kim bo'lishidan qat'iy nazar unga katta ustunlik berar edi. O'n to'qqiz yoshidan Samarqandni boshqarib turgan Amir Yarmak qo'shinini boshqarishga kirishadi. Shundan so'ng uning harbiy sohadagi faoliyati boshlangan. 1370-yilda poytaxti Samarqand bo'lган Temuriylar sultanatiga va Movorounnahrda milliy birlikni yuzaga keltirgan, mustaqil davlatga asos soldi. Amir Temur davrida O'rta Osiyoning mustaqil bir davlat ostiga birlashtirilishi, mamlakat ichida tinchlik o'rnatilishi, shubhasiz, mamlakat iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, san'at, hunarmandchilik, me'morchilik ravnaq topdi. Amir Temur o'zi turli mamlakatlarga yurishlar qilgan bir vaqtida yerlik aholiga, fan, san'at arboblari, iste'dodli hunarmandlar, me'mor va musavvirlarga ularning irqi, millati va dinidan qat'iy nazar hurmat ko'rsatgan. Ko'plab ilm ahillarini saroyiga to'plab, ularga barcha sharoitlarni yaratib bergen.

¹ Marsel Brion. Menkim, Sohibqiron - Jahingir Temur. Toshkent: "Yangi asr avlodи". 2013. - B. 25

Hunarmand va me'morlarni Movorounnahr va sultanatning yirik shaharlari obodonchiligi uchun taklif qilgan.²

Amir Temur ilm-fan va san'at namoyondalarini o'z himoyasiga olar, ularga ma'lum sharoitlar yaratib berar edi. Ularning tirikchiligi, ijodiy faoliyatları davlat hisobiga olinardi. Temur tuzuklarida ham bu o'z ifodasini topgan. Unda "...uchinchi toifa hunar-san'at egalaridir, ularni davlatxonaga eltib, o'rdadan o'rinalar belgiladim" deb yozilgan. Yana "Tuzuklar" da "Qaysi mamlakatni zabit etgan yoki qo'shib olgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa o'z farzandlarimdek ko'rdim"³ deb yozadi. Amir Temur qayerni egallasa xalq orasida obro'-e'tiborga ega ulamolar, sayyidlar va olimlariga hurmat-ehtirom bildirib, do'stona munosabatda bo'lish orqali yerli aholini boshqarish va o'z amriga bo'ysundirishda ular bilan hamkorlik qilgan. Chunki egallangan shahar va qishloqlar aholisi yangi boshliqlarga bo'ysunishdan ko'ra o'zlari azaldan yaxshi bilgan, hurmat qilgan kishilariga bo'ysunishni afzal ko'rishardi. Amir Temur bundan oqilona foydalanib xalqning roziligi va farovonligiga erishgan.

Amir Temur musulmon sifatida islom dini buyurgan amallarga og'ishmay rioya qilar edi. Buni Sultoniya arxiyepiskopi Ioan "U o'z dini talablaridan kelib chiqib, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar musulmonlar qiladigan barcha amallarni bajaradi"⁴ deb alohida ta'kidlagan. O'zga din vakilining bunday e'tirofi biz uchun qimmatli ma'lumot bo'la oladi. Bundan tashqari Amir Temur islom ilmlarini chuqur o'rgangan olim ham edi. Saroyda din peshvolari va olimlar bilan ilmiy suhabatlar o'tkazar va har ishda ular bilan maslahatlashib ish tutar edi. Amir Temur "Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir, mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur"⁵ degan. U davlat boshqaruvida qanchalik qattiqqo'l bo'lmasin, hamishaadolat bilam ish tutgan. Amir Temur o'ziga "Kuch - Adolatdadir"⁶ deb shior qo'yib, hayoti davomida unga amal qilgan.

Ulkan hududni qamrab olgan Amir Temur sultanatida turli din, mazhab, millat va elat vakillari istiqomat qilar edi. 1404-1406-yillarda Samarqandda bo'lган

² Namajon Rahmonov. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at (Maqolalar). Toshkent: "G'afur G'ulom". 1998. - B.4.

³ Bo'riboy Ahmedov, Akrom Aminov. Amir Temur o'gitlari. Toshkent: "O'zbekiston" 2007. - B.35.

⁴ Sultoniya arxiyepiskopi Ioan. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. Amir Temur va uning saroyi haqida hotiralar. Toshkent: "G'afur G'ulom" 2007. - B.194.

⁵ Bo'riboy Ahmedov, Akrom Aminov. Amir Temur o'gitlari. Toshkent: "O'zbekiston" 2007. - B.10.

⁶ O'sha manba: - B. 38.

Ispaniya elchisi Rui Gansales de Klavixo bu haqida o'z kundaliklarida Samarqandda 150 mingdan ziyod aholi yashaganini, Samarqandda yerli xalqdan tashqari xristianlar, yunonlar, eroniylar, turklar, arablar kabi turli qavm va turli mazhabdagi kishilar istiqomat qilishini hikoya qiladi.

XIII asr boshiga kelib Chingizxon qo'shinlari Movorounnahr shaharlarini birma-bir qo'lga kiritgach, yerli aholini shavqatsiz ravishda qirg'in qilganlar. Bu davrda qadimgi yahudiy va xristian jamoalari ham inqirozga uchragan. Saqlanib qolgan kam sonli yahudiylar Buxoro va uning atrofida yashaganlar. Mo'g'ullar davrida Xorazmda yahudiylarning har bir shaharda yuz uydan oshishi taqiqlangan. Amir Temur va Temuriylar davrida Muvorounnahr mintaqasiga Erondan ko'pgina yahudiy jamoalari ko'chirib keltirilgan, ularning bir qismi Buxoroda yashagan. Temuriylar davrida O'rta Osiyo hududida yahudiy jamoalari saqlanib qoldi va o'zlarining diniy markazlaridan ajralib qolganiga qaramay, ular mintaqada o'z mavqelarini uzoq vaqt egallab turdilar.⁷

Amir Temur o'z fuqarolariga ko'plab soliq va to'lovlar o'rnatgan bo'lsa-da, ajnabiy savdogarlarga katta e'tibor ko'rsatadi, ayniqsa fransuzlar va xristianlarni rag'batlantiradi, ularning mamlakat hududida erkin savdo qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratgan. Undan tashqari nasroniylar o'z e'tiqodlariga rioya qilishlari, cherkovlarga borib hamma nasroniylar bajaradigan ibodatlarni ado etishlari uchun barcha sharoitlarni yaratgan.⁸

Amir Temur o'z do'stlariga va elchilarga, ayniqsa, uzoq o'lkalardan kelgan elchilarga yetarlicha ochiqko'ngillik bilan munosabatda bo'lar edi. Manbalarda kelishicha, Amir Temur nasroniy elchilarga suhbat chog'ida ehtirom ko'rsatgan.⁹ Sultoniyar arxiyepiskopi Ioan o'zining "Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar" asarida nasroniylik dini vakillariga yaxshi munosabatda bo'lganligini e'tirof etgan.¹⁰ Amir Temurning dunyoga mashhur harbiy qo'shini tarkibida ham nasroniylar xizmat qilgan. Ular o'z diniy amallarini bajarishlariga imkoniyat yaratilgan. Bular Amir Temurning ahli kitoblarga nisbatan bag'rikengligini ko'rsatadi.

Amir Temur saltanatidagi ozchilik jamoalar, kamsitilgan va e'tibordan chetda bo'lgan mazhab tarafdarlarini o'z homiyligiga olgan. Darvesh, faqir-miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslikni o'zining insoniy burchlaridan biri deb

⁷ Markaziy Osiyo dinlari tarixi. Mualliflar jamoasi. Toshkent: 2006. – B. 61

⁸ O'sha manba: – B. 190.

⁹ Sultoniyar arxiyepiskopi Ioan. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. Amir Temur va uning saroyi haqida hotiralar. Toshkent: "G'afur G'ulom" 2007. - B.190.

¹⁰ Qarang: Markaziy Osiyo dinlari tarixi. Mualliflar jamoasi. Toshkent: 2006. – B. 193.

bilgan. "Tuzuklar"da shunday yozadi - "Buyurdim-ki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish berilsin, toki shu yo'1 bilan gadolik rasmi yo'qotilsin"¹¹. Amir Temurning bu ishlari, uning siyosatidagi ijtimoiy bag'rikenglik tamoyillanini yaqqol ochib beradi.

Amir Temur odatda, Yevropa mamlakatlariga xristian dini peshvolarini elchi qilib yuborar edi. Franiisko, Fransisko Sadru, Sultoniya shahri arxiyepiskopi Ioanlar shunday vazifalarni bajarganlar. 1402-yilda Ioan Fransiya va Angliya qiollariga Sohibqironning maktublarini olib borgan. Musulmon diplomatlaridan faqat Muhammad Keshiygina Yevropaga borishga tuyassar bo'lgan. Bu ham uning qobiliyatidan, bir nechta tillarni bilganidan, ehtimol, Yevropa tillaridan birini bilganidan dalolat beradi. O'sha davrda Amir Temurning shuxrati butun Yevropaga tarqalgan edi. Shu sababdan Muhammad Keshiy Kastiliya qiroli Don Enrike III huzurida katta hurmat-ehtirom bilan kutib olingan. U qirol saroyi va yirik zodagonlar qasrlaridagi qabullarda ishtirok etadi. Qirol unga Rui de Gansales Klavixo boshchiligidagi o'z elchilarini qo'shib, hurmat-ehtirom bilan Samarqandga kuzatib qo'yadi. 1403-yili ispanlarning ikkinchi elchisi Klavixo bilan birga Muhammad Keshiy uzoq va mashaqqatli yo'1 bosib, 1404-yilning avgust oyi oxirlarida Samarqandga yetib keladi. Sohibqiron Kastiliya elchilarini 8-sentabr kuni Samarqand tashqarisidagi Dilkusho bog'ida qabul qiladi. Ular bilan kelgan Muhammad Keshiy ham ispanyaliklar kiyimini kiyib olgan edi, deb guvohlik beradi tarixiy manbalar. Xususan, "Temurbekning Kastiliya qiroli huzuriga yo'llagan elchisi ham biz bilan birga edi. Ispancha kiyingan elchini ko'rib, vatandoshlari kulib yuborishdi" deb yozadi Klavixo.¹²

Ruhoniy Ioan 1403-yil may oyining boshida Parijga kelib, o'zini Amir Temurning elchisi deb tanishtiradi. Chindan ham u Amir Temurning mo'jazgina tamg'asi bosilib, zarhal harflar bilan bitilgan ishonch yorlig'ini - maktubini Fransiya qiroli Karl VI ga topshirib, qirol va Fransiyaning beshta - Berri, Burgundiya, Orlean, Bourbon va Bretaniya gersoglari, ko'plab boshqa yuqori mansabli shaxslar huzurida nutq so'zlab, tashrifiga doir ikki asosiy sababni bayon etadi: birinchisi, Amir Temurning Boyazid ustidan qozongan g'alabasini ma'lum qilish, shu o'rinda u turk sultonasi asir olingani, tutqunlikdan ozod qilingan nasroniyarlari Amir Temur Yevropaga qaytarib yuborganligini bildiradi. Tashrifining ikkinchi sababi, Fransiya qirolini o'z ko'zi bilan ko'rish va Amir Temurga so'zlab berish edi. Arxiyepiskopning gapiga qaraganda, mazkur elchilik

¹¹ Bo'riboy Ahmedov, Akrom Aminov. Amir Temur o'gitlari. Toshkent: "O'zbekiston" 2007. -B. 35.

¹² Ulug'bek Jo'rayev, Baxodir Ermatov. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. Toshkent: "G'afur G'ulom" 2007. -B. 5.

nasroniy diniga ikki qulay imkoniyat yaratadi: birinchidan, bu elchilik ikkala din vakillari uchun erkin savdo qilish imkoniyatini bersa, ikkinchidan, agar qirol va gersoglar rozi bo'lsa, bu qulayliklarni shartnoma yoki ahdlashuv shaklida rasmiylashtirish mumkin bo'ladi.¹³ Yuqoridagilardan Amir Temur adolatli podshoh bo'lish bilan birga diplomatiya sohasining nozik jihatlarini ham yaxshi tushungani ayon bo'ladi. U g'ayridin podshohlarga ularning o'z dinlariga mansub elchilarni yuborish orqali har ikkala tomon uchun erkin muloqoni ta'minlash va elchilikdan ko'zlangan maqsadga oson erishishni ko'zlagan. Amir Temur yigirma yettita davlatni birlashtirgan imperiya tuzib, uning aholisini rozi qilish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirdi.

Amir Temur olib borgan davlat siyosatida bag'rikenglikning barcha tamoyillarini uchratish mumkin. Amir Temur davlat va din o'rtasidagi muvozanatni saqlay olgan, islam dinining bag'rikenglik ta'limoti bilan butun saltanatni boshqarib, undagi turfa din, mazhab, millat va elat vakillarini rozi qila olgan benazir davlat arbobi bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharofiddin Ali Yazdiy Zafarnoma. "Sharq". Toshkent: 1997. -383 b.
2. Marsel Brion "Menkim, Sohibqiron - Jahongir Temur". "Yangi asr avlodi". Toshkent: 2013. -571 b.
3. Toshkent davlat Sharqshunoslik institute. Markaziy Osiyo dinlari tarix. Toshkent: 2006. -208 b.
4. Ulug'bek Jo'rayev, Baxodir Ermatov. Amir Temur Yevropa elchilarini nigohida. Toshkent: "G'afur G'ulom" 2007. -280 b.
5. Bo'riboy Ahmedov, Akrom Aminov. Amir Temur o'gitlari. Toshkent: "O'zbekiston" 2007. -64 b.
6. To'lqin Alimardonov. Amir Temur imperiyasi. "Tangi asr avlodi". Toshkent: 2021. -319 b.
7. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at
8. Nushin Arbabbzadah. Women and Religious Patronage in the Timurid Empire. From the book Afghanistan's Islam.
<https://doi.org/10.1515/9780520967373-007>.
9. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/o-zbekiston-davlatchiliginining-amir-temur-va-temuriylar-davri-bosqichi>.

¹³ Markaziy Osiyo dinlari tarixi. Mualliflar jamoasi. Toshkent: 2006. - B. 198.

10. elib.buxdu.uz. Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot.